

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KIYIM NOMLARINING MIRONIMIK XUSUSIYATI

Sitora YADIGAROVA

*Termiz davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli tizimli tillarda (ingliz va o'zbek tillarida) kiyim nomlarining leksik xususiyatlaridan mironimiya muhokamaga tortilgan. Mironimiya haqida nazariy qarashlar hamda noqardosh bo'lgan tillar ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim nomlarining mironimik xususiyatlari ochib berilgan.*

Har bir xalqning iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan yangiliklar, yaratilgan imkoniyatlarni ifodalovchi so'zlar, birinchi navbatda, o'sha xalq tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib tuziladi va o'sha til lug'at boyligining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Hali til birliklarini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, sistem tilshunoslik va uning tadqiqot metodlari to'la takomillashmagan bir davrda tilning sistem xarakteri, tilshunoslikka bag'ishlangan dastlabki yirik tadqiqotlarda namoyon bo'la boshladi¹²⁰. So'zlarning ma'no xususiyatlari tilning boyishiga zamin yartadi.

Tilning semantik xususiyatlari ikki tilda ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shunda kiyim nomlarining meronimiya xususiyatlari ham tilning qay darajada boy ekanligi haqida dalolat beradi. Meronimiyaning yana bir nomlanishi *partonim* deb ham ataladi. Bu atamalar o'zbek hamda jahon tilshunosligida yangi kirib kelgan atamalar hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida meronimiya atamasi partonimiya atamasi ostida XX-asrning o'rtalarida Buxoro tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan olib kirilgan¹²¹. Meronimiya yunoncha “miros” (meros) – qism, bo'lak va “onyma” – nom so'zlaridan olingan bo'lib, qismni bildiruvchi so'zlardir. Ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim nomlari ham meronimik munosabatda bo'ladi. Masalan, ko'ylak meronimining partonimi yoqa, etak, yeng, ko'ylak burmalari hisoblanadi. Ingliz tilida oyoq kiyimlaridan

¹²⁰ Сафарова Р. “Лексик-семантик муносабатнинг турлари” Тошкент. Ўқитувчи 1996. Б. 3

¹²¹ Eshmo'minov A.A. O'zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronomik munosabatlilik leksemalar linivistik bazasini shakllantirish. Avtoreferat. - Termiz.2022. b.16

shoes (tufli) meronimining partonimlari ropes (bog'ichlar), heels (poshna), accessories (aksesuarlar va bezaklar) hisoblanadi.

Ingliz tilidagi kiyim nomlarining meronimik xususiyati

T/r	Kiyim nomi	Partonimi
1.	Dress	Collar, sleeve, bust, bottom, cuff, waist, hip zip, button, pleat.
2.	Coat	Collar, sleeve, button, zip.
3.	Trainers	Collar, ropes, heel, toecap, logo, tongue, eyeless zip.
4.	Cap	Profile, visor bill, crown, eyelets, top button, panels, underbill, side panel.
5.	Trousers	Belt loop, tack button, zipper, coin pocket, rise, hem.
6.	Shoes	Counter, inside, heel, pitch, topline, outside, heel breast, toebox.
7.	Skirt	Waist, belt, hip line, length, hem line.
8.	Hat	Crown shape, crease, brim, buckle set, hatband, front dip, roll.
9.	Pullover	Neck opening, sleeve, shoulder, neckline collar, upper body, waist shaping, hem.
10.	Hoodie	Hood, hood hemming, drawstring, zipper, pockets, front part, cuff.

O'zbek tilidagi kiyim nomlarining meronimik xususiyati

T/r	Kiyim nomi	Partonimi
1.	Chopon	Yoqa, etak, yeng, astar, chiroz.
2.	Lozim	Pocha, chiroz, xishtak, ishtonbog'.
3.	Xalat	Yoqa, yeng, etak, tugma, zamok.
4.	Etik	Bog'ich, poshna, zamok, qisqich.
5.	Jelak	Yoqa, yeng, etak, jiyak, astar.
6.	Salla	Mato, kardon, bezak.
7.	Ro'mol	Mato, bezak, kashta, burchak.

Tahlildan ko'rinib turibdiki, kiyim nomlarining meronimik xususiyatlari bir biriga o'xshashdir. Chunki har bir kiyim qismlari deyarli bir xil atama bilan ataladi.

Masalan, o'zbek tilidagi ko'ylak, jelak, xalat kabi kiyim nomlarining qismlari bir xil ataladi. Ingliz tilida ham shu holatni kuzatishimiz mumkin. Masalan, dress, pullover, skirt kabi kiyim nomlarini misol qilib olishimiz mumkin. Ularning partonimlari deyarli bir xil.

Hozirgi kunga kelib, zamonning glaballashuv jarayonida leksikalarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda, shu jumladan kiyim nomlari ham zamon bilan birga hamnafas holda yangi nomlarning kirib kelishi kuzatilmoqda. Diaxron kiyim nomlarining hozirgi zamonga kirib kelishi bilan kiyim nomlarida, ya'ni mironimiya jihatidan o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi *chopon* kiyim nomining hozirgi kunga kelib yengsiz variant ham foydalanilmoqda. Ingliz tilida esa *blouse* (yengli kofta) ning yengsiz variantlari ham foydalanilmoqda. Bunga sabab qilib, xalqning yashash tarzi, muhitini olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сафарова Р. “Лексик-семантик муносабатнинг турлари” Тошкент “Ўқитувчи” 1996. 230.Б.
2. Eshmo'minov A.A. O'zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronomik munosabatli leksemalar linvistik bazasini shakllantrish. Avtoreferat. - Termiz. 2022. 60.b.
3. Bahromovna, Y. S. (2021). Thematic Division of Clothing Names in English and Uzbek. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 1(2), 61–62. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/41>
4. Yadigarova, S. B. (2023). Clothing names as the linguistic objects. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (119), 305-309.
5. Yadigarova Sitara Bahramovna. (2023). Analysis of Clothing Component Proverbs in English and Uzbek. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 353–356. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2017>
6. Yadigarova Sitara Bahramovna. (2023). Synonymic Features of Clothing Names in Different Systematic Languages (On The Example of English and Uzbek). Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 601–604. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1151>
7. Nilufar, X. (2022). Comprehension Strategies of English Language Learners in Reading. International Journal of Inclusive and Sustainable Education, 1(5), 7-9.

8. Qulmamatova Muattar Otabek qizi. (2023). The Role of Concept in Linguistics. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(10), 50–53. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJRCS/article/view/1861>
9. Nuriddinova Hurriyat Bakhtiyarovna. (2021). Culture is an inseparable part of any ethnic group. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(11), 120–126. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/P54EB>
10. Makhmud, Mukumov. Using the Moodle Distance Learning System in the Educational Process. Journal NX, vol. 6, no. 11, 2020, pp. 156-159.
11. Мукумов, М. Х. (2021). Interpretation Of The Terms World Model, Worldview, Image Of The World In Cognitive Linguistics. Международный журнал Искусство слова, 4(2).
12. О. Уралова. Ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli maqollarning mentalitetga xos xususiyatlari. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков 1 (1), 320-324.

РОЛЬ АВТОРСКОЙ МОДАЛЬНОСТИ В ТЕКСТЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Зилола ФАЙЗУЛЛОЕВА

Самаркандский институт иностранных языков, преподаватель кафедры лексикологии и стилистики английского языка (Узбекистан)

Аннотация. *Идея авторской модальности, которая объединяет все части текста в единое структурное и смысловое целое, имеет решающее значение для образования и восприятия текста. Без этого исследование речевой организации текста невозможно. На материале художественных текстов, научных работ и публицистики изучается роль авторского начала в тексте, а также способы и средства выражения авторской модальности.*

Ключевые слова: *авторская модальность, текстовая модальность, субъективная модальность, эмоциональная экспрессия.*

Для текстообразования и текстовосприятия важна концепция авторской модальности, которая объединяет все части текста в структурное целое. «Модальность - это выражение в тексте отношения автора к сообщаемому, его концепции, точки зрения, позиции, его ценностных ориентаций» [7]. Другими словами, это авторская оценка изображаемого.